# YASHIL IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№ 12



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI ........ 44
**Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li**

TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH ........ 48
**Maxmudova Aziza Pirmamatovna**

"INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH ........ 53
**Turayeva Gulizahro**

АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ) ........ 57
**Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли**

KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI ........ 62
**G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna**

KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI ........ 67
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich**

INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 73
**Mustafoyev Akbar Mustafo o'g'li**

MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI ........ 78
**Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi**

REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI ........ 83
**Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda**

SIRKULYAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI ........ 87
**Sodikov Zokir Rustamovich**

YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI ........ 92
**Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi**

MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI ........ 97
**G'aniyev Baydulla Toshmurodovich**

АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ ........ 101
**Даулетиярова Шахло**

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА ........ 109
**Кадирова Хадича Тураевна**

XORIJ MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR ........ 115
**D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev**

O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 125
**Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li**

HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI ........ 133
**Botirova Raximaxon Abdujabbarovna**

QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI ........ 136
**Musayeva Shoira Azimovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH ........ 144
**Axmedov Oybek Turgunpulatovich**

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI ........ 149
**Madraximov Ilxom Kamilovich**

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI

**Madraximov Ilxom Kamilovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: madraximovilxom01@gmail.com
ORCID: 0010-0088-4477-241X

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sug'urta bozori portfelining tarkibiy-strategik xususiyatlari, diversifikatsiya darajasi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda sug'urta portfeli tushunchasining nazariy asoslari Markowitz portfel nazariyasi, Swiss Re Institute tahlillari, IAIS hamda OECD standartlari asosida yoritilib, ilmiy yondashuvlarning turli modellari qiyosiy baholangan. O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta segmentining keskin ustunligi, hayot sug'urtasining sust rivojlanishi, to'lov qobiliyati koeffitsiyentlarining pastligi va qayta sug'urtaning yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolar statistik ma'lumotlar orqali tahlil etiladi. Shuningdek, sug'urta xizmatlari diversifikatsiyasining cheklanganligi, sug'urta madaniyatining pastligi hamda Solvency II talablari bilan yetarli mos kelmaydigan tartibga solish amaliyoti O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy to'siqlari sifatida aniqlanadi. Maqolada portfel boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ham ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sug'urta portfeli, diversifikatsiya, risklarni boshqarish, Solvency II, O'zbekiston sug'urta bozori, hayot sug'urtasi, moliyaviy barqarorlik, qayta sug'urtalash, portfel rentabelligi, Markowitz nazariyasi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the structural and strategic characteristics of Uzbekistan's insurance portfolio, the level of diversification, and its impact on financial stability. The theoretical foundations of insurance portfolio management are discussed based on Markowitz portfolio theory, Swiss Re Institute reports, and IAIS and OECD standards. Using statistical data, the study examines key issues of Uzbekistan's insurance market, including the dominance of the non-life insurance segment, the underdevelopment of life insurance, low solvency ratios, and insufficient development of reinsurance. The study also identifies major constraints such as limited service diversification, low insurance culture, and regulatory practices that do not fully comply with Solvency II requirements. The article concludes with scientifically grounded recommendations aimed at improving insurance portfolio management.

Key words: insurance portfolio, diversification, risk management, Solvency II, Uzbekistan insurance market, life insurance, financial stability, reinsurance, portfolio profitability, Markowitz theory.

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ структурно-стратегических характеристик страхового портфеля Узбекистана, уровня диверсификации и его влияния на финансовую устойчивость. Теоретические основы страхового портфеля раскрываются на основе портфельной теории Марковица, аналитических обзоров Swiss Re Institute, а также стандартов IAIS и OECD. На основе статистических данных изучаются ключевые проблемы страхового рынка Узбекистана: доминирование сегмента общего страхования, слабое развитие страхования жизни, низкие коэффициенты платежеспособности и недостаточное развитие перестрахования. Кроме того, выявлены такие ограничения, как ограниченная диверсификация страховых услуг, низкий уровень страховой культуры и несоответствие регуляторной практики требованиям Solvency II. В заключение предлагаются научно обоснованные рекомендации по совершенствованию управления страховым портфелем.

Ключевые слова: страховой портфель, диверсификация, управление рисками, Solvency II, страховой рынок Узбекистана, страхование жизни, финансовая устойчивость, перестрахование, рентабельность портфеля, теория Марковица.

## KIRISH

Bugungi global moliya bozorlarida notinchlik, tabiiy ofatlar, geosiyosiy tavakkalchiliklar va iqtisodiy o'zgarishlar sug'urta kompaniyalari oldiga yangi va ko'p qirrali risklarni boshqarish vazifasini qo'ymoqda. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va kapital yukini muvozanatlashtirishda sug'urta portfelini samarali shakllantirish hamda boshqarish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Sug'urta portfeli – bu sug'urtalovchi tomonidan jamlangan va boshqarilayotgan turli sug'urta shartnomalarining majmuasi bo'lib, u kompaniya faoliyatidagi barcha sug'urta turlari, ularning muddatlari, mijozlar segmenti, geografik hududlar va moliyaviy natijalarni qamrab oladi. Har bir portfel tuzilishida asosiy maqsad – risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni saqlash, tavakkalchilikni optimallashtirish hamda bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda sug'urta portfeli nafaqat kompaniya daromadlarini shakllantirish vositasi, balki risklarni boshqarishning muhim moliyaviy mexanizmi sifatida ham talqin qilinmoqda. Ilmiy manbalarda sug'urta portfelining funksiyalari borasida turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular amaliyotda qo'llanilayotgan strategiyalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI

Sug'urta portfeli tushunchasi ilmiy adabiyotlarda sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan barcha faol hamda muddati o'tgan shartnomalarning yig'indisi sifatida izohlanadi. Portfel tarkibi sug'urta turlari, risk darajalari, hududiy omillar, mijozlar profili va boshqa aktuar omillar asosida shakllanib, kompaniyaning umumiy xavf ko'rsatkichlarini belgilaydi. Ushbu yondashuv sug'urta bozorida barqarorlikni ta'minlash, risklarning kutilmagan tebranishlarini kamaytirish va moliyaviy chidamlilikni oshirish uchun muhim hisoblanadi (Swiss Re Institute, 2023).

Sug'urta portfelining nazariy asoslari investitsiya menejmentidagi klassik portfel nazariyasi bilan bevosita bog'liq. Markowitz (1952) tomonidan ishlab chiqilgan "Portfolio Selection" modeli aktivlar o'rtasidagi kovariatsiya va diversifikatsiya tamoyillarini inobatga olgan holda optimal portfel yaratishning ilmiy asoslarini shakllantirgan. Ushbu yondashuvning sug'urtaga tatbiq etilishi kompaniya portfelidagi risklarni tarqatish, tavakkalchiliklarni muvozanatlashtirish va maqsadli rentabellik darajasiga erishish imkonini beradi. Ya'ni, sug'urta portfeli ham investitsiya portfeli kabi turli yo'nalishlar va segmentlar bo'yicha muvozanatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Swiss Re Institute (2023) global sug'urta sektoridagi so'nggi tendensiyalarni tahlil qilar ekan, diversifikatsiyalangan portfelga ega kompaniyalar makroiqtisodiy tebranishlar, inflyatsiya bosimi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan ko'proq barqaror bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, portfelning tarkibiy tuzilishi, underwriting intizomi va xavf baholashning aktuarlik jihatlari kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi uchun hal qiluvchi omillar sifatida ko'rsatiladi.

Kulyasov va Zinchuk sug'urta portfelining asosiy funksiyalarini to'rtta yo'nalishda ko'rsatadi: risklarni diversifikatsiyalash, daromad oqimlarini barqarorlashtirish, kapitallik talablarini nazorat qilish va likvidlikni boshqarish. Ularning fikricha, sug'urta portfelining strukturaviy barqarorligi kompaniyaning moliyaviy holati va investitsiyaviy imkoniyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Boshqa tomondan, Shirvani (2021) sug'urta portfelini kompaniya strategiyasining muhim elementi sifatida talqin qiladi va uning funksiyalarini kengroq doirada baholaydi. Uning ta'kidlashicha, portfel kompaniyaning innovatsion salohiyati, bozor ulushi va mijozlar segmentatsiyasi kabi ko'rsatkichlarga ham xizmat qilishi mumkin. Bu yondashuvda sug'urta portfeli faqat moliyaviy natijalarni emas, balki marketing va raqamli transformatsiyani ham o'z ichiga olgan tizimli yondashuvni anglatadi.

OECD (2021) tahlillariga ko'ra, zamonaviy sug'urta bozori sharoitida portfel diversifikatsiyasi nafaqat riskni kamaytirish, balki tartibga solish standartlariga (masalan, Solvency II) mos keluvchi kapitallik darajasini ta'minlash vositasi sifatida ham qaraladi. Shu bois, portfel funksiyalari global standartlar va kapitallilik me'yorlari bilan chambarchas bog'liqdir.

IAIS (2022) hisobotida qayd etilishicha, portfel strukturasining to'g'ri shakllantirilishi kompaniya barqarorligini kafolatlovchi asosiy faktorlardan biri hisoblanadi. Bu yerda ayniqsa risk turlari bo'yicha taqsimot, aktivlar va passivlar o'rtasidagi muvozanat, shuningdek, sug'urta mahsulotlarining rentabelligi asosiy indikator sifatida ko'riladi.

Biroq ayrim olimlar sug'urta portfelining funksiyalarini haddan tashqari ko'p kategoriyalarga bo'lish samarasizligini tanqid qilishadi. Masalan, Brigham va Ehrhardt (2017) portfel menejmentining ortiqcha tafsilotlarga bo'linishi amaliy qaror qabul qilishni murakkablashtirishini ta'kidlab, faqat risk va rentabellik mezonlariga tayanishni afzal ko'radi.

Shunday qilib, adabiyotlarda sug'urta portfelining asosiy funksiyalariga turlicha yondashuvlar mavjud. Biri uni risk menejmenti va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida ko'rsa, boshqasi uni strategik boshqaruvning innovatsion elementi sifatida talqin qiladi. Ushbu qarama-qarshi nuqtai nazarlarni sintez qilish orqali milliy sug'urta kompaniyalarida portfel siyosatini samarali shakllantirish mumkin bo'ladi. Sug'urta portfelining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- risklarni diversifikatsiyalash;
- daromadlar oqimini barqarorlashtirish;
- aktiv va passivlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash;

- sug'urta faoliyatining rentabelligini oshirish;
- kompaniyaning raqobatbardoshligini kuchaytirish (IAIS, 2022).

Sug'urta portfeli tarkibiy tuzilmasini aniqlashda ilk nazariy asoslar Markowitz (1952) tomonidan ishlab chiqilgan portfel nazariyasiga tayanadi. Bu nazariyaga ko'ra, har qanday aktivlar portfelida, jumladan, sug'urta portfelida ham asosiy maqsad – daromad va risk o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlashdir. Sug'urta kompaniyalari uchun esa bu muvozanat – sug'urta mahsulotlari, mijozlar va geografik risklarning oqilona kombinatsiyasini yaratish orqali erishiladi. Markowitzning modeli bugungi kunda ham portfel diversifikatsiyasi orqali risklarni kamaytirishda nazariy asos sifatida ishlatiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston sug'urta bozorining 2022-2024-yillardagi portfel tuzilmasi, umumiy va hayot sug'urtasi ulushi, mukofotlar, majburiyatlar va to'lovlar dinamikasi rasmiy statistika asosida tahlil qilindi.

Sug'urta segmentlari o'rtasidagi nomutanosiblik qiyosiy yondashuv orqali rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Hayot sug'urtasi kompaniyalarining barqarorligi mukofot/majburiyat koeffitsiyenti asosida baholanib, Solvency II talablaridan chetlanish darajasi aniqlangan. Shuningdek, bozorning mavjud muammolari sektordagi strukturaviy ko'rsatkichlar tahlilidan kelib chiqqan holda umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sug'urta bozori portfelining tarkibiy-strategik tahlili shuni ko'rsatadiki, sohada umumiy sug'urta turlarining ulushi yuqori bo'lib, hayot sug'urtasi segmenti hali yetarlicha rivojlanmagan. Sug'urta kompaniyalari o'z portfellari tarkibini kengaytirish, risklarni turli yo'nalishlar bo'yicha diversifikatsiya qilish va xalqaro qayta sug'urtalash mexanizmlaridan foydalanish orqali barqarorlikka erishishga intilmoqda. Shu bilan birga, ayrim sug'urta turlarida zararlilik darajasi yuqoriligi, mijozlar segmentida jismoniy shaxslar ulushining ortishi va yuridik shaxslar ulushining kamayishi sug'urta portfelining strategik boshqaruvida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

2022-2024-yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta segmenti keskin ustunlik qilmoqda. Jumladan, majburiyatlar tarkibida umumiy sug'urtaning ulushi har yili 99% darajasida bo'lib qolmoqda, hayot sug'urtasi esa atigi 1% ni tashkil etmoqda. Mukofotlar bo'yicha ham umumiy sug'urta 2022-yildagi 76% ulushdan 2024-yilda 97% gacha o'sdi, hayot sug'urtasi esa 24% dan 3% gacha kamaydi. To'lovlar ko'rsatkichida esa umumiy sug'urta 42% → 94% gacha keskin o'sdi, hayot sug'urtasi esa 58% → 6% gacha pasaydi.




1-rasm. Umumiy va hayot sug'urtasi ko'rsatkichlarining sug'urta bozordagi ulushi tahlili, foizda

Xalqaro tajribada esa bunday nomutanosiblik kuzatilmaydi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Yevropa, Yaponiya) hayot sugʻurtasining ulushi sugʻurta mukofotlari tarkibida odatda 50-60% ni tashkil qiladi. Osiyo davlatlarida (Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur) esa bu koʻrsatkich yanada yuqori boʻlib, 65-70% gacha chiqadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa umumiy sugʻurta ustunlik qiladi, ammo baribir hayot sugʻurtasining ulushi Oʻzbekistondagidan yuqoriroq darajada saqlanib turadi.

Oʻzbekiston sugʻurta bozorida hayot sugʻurtasi segmenti yetarli darajada rivojlanmagan. Bu aholining moliyaviy savodxonligi pastligi, uzoq muddatli sugʻurta mahsulotlariga talabning sustligi hamda soliq imtiyozlari va ragʻbatlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, kelgusida bozorning sogʻlom rivojlanishi uchun hayot sugʻurtasi ulushini kamida 20-25% darajaga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Hayot sugʻurtasi segmentida mukofotlarning majburiyatlarga nisbatan yetarlicha yuqori emasligi asosiy muammo boʻlib qolmoqda. Bu esa kompaniyalarning toʻlov qobiliyatiga bevosita taʼsir qiladi va xalqaro Solvency talablaridan ancha orqada ekanini koʻrsatadi.




2-rasm. 2022-2024-yillarda Top 5 ta hayot sug'urta kompaniyasining toʻlov qobiliyati koeffitsiyenti, Solvence II metodologiyasi asosida

2022-2024-yillar davomida hayot sugʻurtasi bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar koeffitsiyentlari (mukofot/majburiyat nisbati) juda past darajada shakllandi. Masalan, APEX Life Insurance 2022-yilda 0,397 daraja bilan yetakchi koʻrsatkichga ega boʻlgan boʻlsa-da, 2023-2024-yillarda keskin pasayib ketdi. Agros Hayot kompaniyasi esa 2023-yilda 0,165 koʻrsatkich bilan nisbatan yuqori natijani qayd etgan, ammo 2024-yilda yana pasaydi. Shu bilan birga, Oʻzbekinvest Hayot 2024-yilda 0,1345 darajaga chiqib, oʻzining barqarorroq holatini namoyon qildi. Qolgan kompaniyalarda esa koʻrsatkichlar 0,02-0,05 oraligʻida boʻlib, juda past darajada saqlanmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sugʻurta bozori portfeli diversifikatsiyasida amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolardan quyidagilar aniqlandi:

Birinchidan, Oʻzbekiston sugʻurta bozorida taklif etilayotgan xizmatlar doirasi cheklangan boʻlib, ular yuridik va jismoniy shaxslarning joriy hamda istiqboldagi ehtiyojlarini toʻliq qondira olmaydi. Hozirgi vaqtda amalda atigi 60 ga yaqin sugʻurta turi mavjud boʻlib, bu jahon amaliyotidagi 200 dan ortiq sugʻurta turlariga nisbatan ancha past koʻrsatkichdir. Natijada, sugʻurta kompaniyalari mijozlarning ehtiyojlariga moslashuvchan va innovatsion mahsulotlarni taklif qilish imkoniyatidan cheklangan boʻlib qolmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatda yirik va yaxshi kapitallashtirilgan milliy qayta sugʻurta kompaniyasining yoʻqligi sugʻurta bozorining rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Masalan, Xitoydagi China Re kompaniyasi 103 mlrd AQSh dollari kapitallashuvga ega boʻlsa, Rossiya Federatsiyasidagi RNPK 3,2 mlrd AQSh dollarlik kapitali bilan

milliy sug'urta tizimining barqarorligini ta'minlab kelmoqda. O'zbekistonda esa bunday kompaniyaning mavjud emasligi sababli risklarni mahalliy darajada to'liq qoplash imkoniyati yo'q va xalqaro qayta sug'urtaga qaramlik yuqori darajada qolmoqda.

Uchinchidan, xususiy va kichik biznes vakillari, shuningdek, aholining keng qatlamlari o'rtasida sug'urta madaniyatining pastligi jiddiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Sug'urta madaniyati deganda sug'urtaga ajratiladigan moliyaviy xarajatlarning ongli ravishda zarur va maqsadga muvofiq ekanligini idrok etish tushuniladi. O'zbekistonda potensial tavakkalchiliklarning atigi 10 foizdan kamrog'i sug'urtalanmoqda, bu esa aholining risklarni boshqarishdagi passivligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, mahalliy sug'urtalovchilar sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha tizimli ravishda keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirmayaptilar. Bu esa aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, sug'urta xizmatlarining afzalliklarini keng tushuntirish va uzoq muddatli barqaror sug'urta madaniyatini shakllantirishda jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Beshinchidan, sug'urta bilan aholini qamrab olish darajasi hamon juda pastligicha qolmoqda. Masalan, O'zbekistonda jon boshiga yiliga sug'urta mukofotlari 18 AQSh dollaridan kam bo'lsa, jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 300 AQSh dollarini tashkil etadi. Bu farq aholining sug'urtaga bo'lgan qiziqishi va imkoniyatlari cheklanganini ko'rsatadi.

Oltinchidan, sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlari yetarlicha samarali emas. Xususan, qabul qilingan majburiyatlar va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbatni tartibga solish masalalarida sezilarli bo'shliqlar mavjud. O'zbekistonda tartibga solish tizimi Solvency I darajasida qolib ketgan bo'lsa, jahon amaliyotida esa Solvency II kabi tavakkalchilik darajasiga asoslangan yondashuvga o'tilgan. Bu esa mamlakat sug'urta bozorining xalqaro standartlarga moslashuvini kechiktirmoqda hamda kapital yetarliligi va risklarni baholashda noaniqliklar tug'diradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Swiss Re Institute. (2023). World Insurance: Global Review and Outlook 2023. https://www.swissre.com/institute
2. Markowitz, H. (1952). Portfolio Selection. The Journal of Finance, 7(1), 77-91. https://doi.org/10.2307/2975974
3. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). (2022). Risk-Based Global Insurance Capital Standard. https://www.iaisweb.org
4. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2017). Financial Management: Theory & Practice (15th ed.). Cengage Learning.
5. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). (2022). Global Insurance Market Report (GIMAR) 2022. https://www.iaisweb.org
6. Kulyasov, V.N., & Zinchuk, M.V. Struktura i funktsii strakhovogo portfelya. Sug'urta portfelining tuzilishi va funksiyalari.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2021). Insurance Market Trends 2021. OECD Publishing. https://www.oecd.org
8. Shirvani, A. (2021). Insurance Portfolio Management in the Era of Digital Transformation.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 12**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz